

**«KELISHILDI»**

Xorazm viloyati Sog'liqni  
saqlash boshqarmasi boshlig'i

I.Xadjiev.



2022 yil.

**«TASDIQLAYMAN»**

Xorazm viloyati  
xokimi o'rinosari

B.Qurbanov



2022 yil.

**«KELISHILDI»**

Xorazm viloyati qurilish  
bosh boshqarmasi boshlig'i

B.Karimov.



2022 yil.

**«KELISHILDI »**

Xorazm viloyati hokimligining  
YaBX"IK direktori

Sh.Otaev.



2022 yil.

**LOYIHALASH TOPSHIRIG'I**

Urganch shahar " Gulshan" MFYdagi Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi  
(kirxona, sterilizatsiya xonasi, ma'muriy bino, obodonlashtirish, yordamchi binolar)  
ob'ektini rekonstruksiya qilish

Urganch shahar -2022 yil

Nº	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Asosiy ma'lumotlar va talablar Mazmuni
1	2	3
1	Ob'yeqtning nomi	Urganch shahar " Gulshan" MFYdag'i Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi (kirxona, sterilizatsiya xonasi, ma'muriy bino, obodonlashtirish, yordamchi binolar) ob'ektini rekonstruksiya qilish.
2	Ob'yeqtin manzili	Xorazm viloyati Urganch shahar Gulshan MFY.
3	Loyihalash uchun asos	<p>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98-sonli Qaror asosida</p> <p>2. Xorazm viloyati Urganch shahar hokimining 2022 yil 09 fevraldagi 59-12-180-Q/22-sonli qarori</p> <p>3. Xorazm viloyati arxitektura va qurilish bosh boshqarmasining 2022 yil 07 fevraldagi №1733-1733401-36403- sonli ART-I-II-qism hujjatlari</p>
4	Buyurtmachi	Xorazm viloyati hokimligining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi. (62) 223-09-29, e-mail: tajibaev 8989@mail.ru
5	Bosh loyihachi	xarid tartib taomillari asosida aniqlanadi
6	Bosh pudratchi	xarid tartib taomillari asosida aniqlanadi
7	Loyihani ishlab chiqish muddati	Shartnomada aniqlanadi
8	Qurilishni taxminiy muddatlari.	<p>2022 yil boshlanadi</p> <p>2022 yilda tugallanadi</p>
9	Loyihalashtirish bosqichi	Bir bosqichli loyihalashtirish
10	Qurilish turi	Rekonstruksiya qilish
11	Ajratilgan mablag'	2000.0 mln.so'm
12	Moliyalashtirish manbai	Respublika budgeti
13	Binoni pardozlash va ish hajmlariga qo'yiladigan talablar.	<p>Bajariladigan ishlar qizil chiziqdan chiqmagan holda bajariladi.</p> <p>Tasdiklangan hududning sxemasi asosida hududini batafsil rejashtirish sxemalari bosh reja ishlab chikiladi.</p> <p>Bosh reja, texnologiya loyihalarini - foydalananuvchi tashkilot bilan kelishish, hududning batafsil rejashtirish sxemasida muhandislik tarmoqlari texnik shartlar asosida loyihalanib, mavjud muhandislik tarmog'iga ulansin. Tarmoq egalari bilan kelishiladi. Turli xil konfiguratsiyalar yordamida binolar tarkibini shahar sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik markazining va shahar favqulodda vaziyatlar bo'limining gigienik hamda texnik shartlariga asosan loyihalashtirish.</p> <p>Tasdilangan bosh rejasiga muvofiq aholi va transport vositalarining qatnovini hamda yong'in havfisizligi talablarini inobatga olgan holda ShNQ 2.01.02-04 talablarini inobatga olinsin:</p> <p>Loyiha yechimi O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksi hamda boshqa me'yoriy hujjatlari (QMQ, SHNQ, texnik shart) asosida qabul qilinadi.</p> <p>Yashirin holda bajariladigan qurilish ta'mirlash ishlarini barcha loyihalarda alohida uzellar bilan ko'rsatish;</p> <p>Zilzilabardoshlikni oshirish maqsadida qo'llaniladigan uzellar barcha loyihada alohida ko'rsatilsin;</p> <p>Yangi quriladigan binoda SG-1 (kladochnaya setka) uzellarda alohida aks etirib ko'rsatilsin;</p> <p><b>Urganch shahar "Istiqlol" MFYdag'i Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi (kirxona, sterilizatsiya xonasi, ma'muriy bino, obodonlashtirish, yordamchi binolar) rekonstruksiya qilish ob'ektini loyihalashda quyidagilar nazarda tutilsin:</b></p> <p>Rejalashtirish bo'yicha qarorlar binolarning maqsadlariga muvofiq, shamolatish tizimlari, tabiiy yoritish, energiya tejamkorlikni hisobga olgan holda loyihalashtirish.</p> <p><b>Tashqi pardozlash:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Fasadlar – devor yuzasi ohak-qum aralashmali suvoq bilan qoplab so'ngra quruq aralashmali suvoq bilan tekislaniib ustidan travertin bilan qoplagan holda loyihalash:</li> <li>- sokol fasadga moslab loyihalansin.</li> <li>-bino parapeti metall karkasli "Alukobond"</li> </ul>

**Binoning kirish qismi** – mayjud bo'lsa ta'mirlash. Yangini qurish. Ayvonli zinalar (asosiy kirish qismiga alumin profillardan tambur va nogironlar va harakatlanishi cheklangan shaxslarning extiyolarini hisobga olgan holda pandus qilinsin. Pol-sirpanmaydigan bruschatka, perila – anodirovannoy metalldan loyihalansin;

**Ichki pardozlash** – Ichki devorlarni sementlit, ohak aralashmali suvoq ustidan quruq aralashmali suvoq bilan tekislanib, suvli bo'yoq, moyli bo'yoq va keramik plitalar bilan qoplagan holda loyihalash ;

-Elektrshit xonasi- ta'mirtalab holda bo'lsa ohak-qum aralashmali suvoq qilib ustidan ohak bilan oqlash ;

-ma'muriyat xonalari – shpaklyovka bilan tekislanib yorqin suvli bo'yqlar bilan bo'yoqlash ;

-Shiftlar- quruq aralashmali suvoq bilan tekislanib, suvli bo'yoq bo'yash, keramik plitalar bilan qoplagan holda loyihalash ;

**Derazalar** – eski binodagi mayjud barcha yog'och derazalarini nuqsonlar dalolatnomasiga asosan ikki kamerali plastik derazalarga (ichki va tashqi tokchalar) bilan almashtirigan holda loyihalansin. SHamollatish tizimi uchun derazalar ochgichlari murakkab mexanizmli yoki fortokchiali, ichki deraza tokchalar, tashqi deraza tokchalar ruhlangan tunukadan, o'chamlari loyiha talablari asosida loyihalansin;

**Eshiklar** – binodagi mayjud barcha eshiklarni almashtirish nuqsonlar dalolatnomasiga asosan alyumin, MDF eshiklardan, xojatxonalarda-alumin profilli eshiklardan, ovqatlanish, arxiv, elektr shit xonasi - o'tga chidamli materiallardan bo'lgan eshiklardan loyihalansin;

-Tashqi vitrajlar alumin profildan, favqulotda yong'in havfsizligi eshiklarini loyihalashda amaldagi yong'in havfsizligi talablariga muvosif,

-Tashqi eshiklar issiq-sovuqdan himoylovchi materiallardan foydalanib loyihalansin;

**Pollar** - binodagi mayjud pollarni nuqsonlar dalolatnomasiga asosan linoleum (meditcinik), relin, marmar, beton keramik plitalardan foydalanib loyihalash.

**Plintuslar** – marmar, MDF va keramik plintuslardan foydflanib loyihalash.

-san.uzel, dush pollari – keramik plitkalar, xonaning chekka burchagida nishab bilan trap o'rnatishni inobatga olish, genuya kosasini pol sathidan bir qadam balandroq o'rnatishni inobatga olish ;

-oshxona zallari– katta o'chamdag'i keramik plitkalar ;

-Texnik binolar – beton ;

-Monolit zinapoyalar va zinapoyalar - marmar, qadam qalinligi 30,0 sm, ko'targichlar 15 sm.

-Kirish zinalari maydonchasi – marmardan.

-xojatxona – keramik plitkaldan loyihalansin ;

Hududni g'isht va metal panjara to'siq devorlar bilan o'rash loyihada ko'zda tutilsin.

**Tashqi xojatxona** – Agar mayjud xojatxona bo'lsa nuqsonlar dalolatnomaga asosan ta'mirlash, yaroqsiz bo'lsa talabdan kelib chiqqan holda yangidan loyihalashtirish.

14	Konstruktiv yechimlarga, yoki ko'tarib turuvchi va tashqi himoya konstruksiyalarga va ularning materiallariga qo'yiladigan asosiy talablar.	<p>Loyihalash va konstrukturaviy echimlarda zamonaviy loyihalash va qurilish tajribasini hisobga olish kerak.</p> <p>Barcha konstruksiya va materiallar mayjud standartlar va texnik shartlarga mos kelishi va ekologik toza materiallardan tayyorlanishi kerak.</p> <p>Loyihani ishlab chiqishda materiallarga minimal ta'sirini hisobga olgan holda texnologik yechimlarni qo'llash kerak.</p> <p>-Tanlashda me'moriy jihatdan texnologik va energiya tejaydigan zamonaviy dizayn va texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratish kerak.</p> <p>Loyiha qarorlarini amalga oshirishda mahalliy ishlab chiqarishning muqobil energiya tejamkor manbalaridan foydalanish kerak.</p> <p>Binolar konstruksiyalarini favqulotda vaziyatlarda, shu jumladan yong'in va zilzilalarda progressiv buzilishlardan himoyasini ta'minlashni ko'zda tutish.</p> <p><b>Poydevor-</b> mavjud bino poydevori tasmasimon quyma betondan bajarilgan. QSXN inspeksiyasining xulosasiga asosan loyihalansin. Poydevorlarni suv himoya qatlami yemirilishini nazarda tutib, tashqi va ichki yon yuzalari namlikdan himoylovchi materiallardan foydalanib, shamollatish tuynikchalar (produhlar) o'rnatib, QMQ 2.03.11-96 "Qurilish qurilmalarini karroziyadan himoyalash me'yoriy talablarini bajarilib loyihalansin;</p> <p><b>Devorlar</b> - pishgan g'isht, seliqat df shlaqa bloqdan. QSXN inspeksiyasining xulosasiga asosan loyihalansin. Devorlar yoriqlarining shikastlangan uchastkalarini mustahkamlash, mahkamlash, zo'raytirish. Energiya tejamkor materiallar bilan izolyatsiya qilish. Yordamchi binolar devorlari qalinligi 38 sm. Zilzilabardoshlik talablarini bajarilib loyihalansin;</p> <p><b>Tom yopma</b> - ko'p g'ovakli yig'ma temir-beton plita bilan bajarilgan. QSXN inspeksiyasining xulosasiga asosan loyihalansin. Zilzilabardoshlik kamari o'rnatib, QMQ talablarini bajarilib loyihalansin;</p> <p><b>Tom qoplamasni</b> - nuqsonlar dalolatnomasiga asosan almashtirish, QSXN inspeksiyasining xulosasiga asosan loyihalansin. Parapet devorlarida me'yor talablariga asosan cherdakli tom qoplamali ostini shamollatish uchun talab qilinadigan o'chamdag'i proyomlar bajarilib, shamollatish tuyukchalar (produhlar) o'rnatilib, tom qoplamasini hisobiy foydalanish muddatlari inobatga olinib, issiqsovudan himoylovchi, issiqlik izolyatsiyasi qalinligi issiqlik texnikasini hisoblash</p>
----	---	---

		<p>asosida kengaytirilgan polistirol yoki yong'in-kvarts qumidagi shisha tolali plitalar ; Tom yopmasi yog'och karkas va bo'yalgan metall qoplama eng kam qalnligi 0,5 mmdan kam bo'limgan holda QMQ 2.03.10-19 talablari asosida, yomg'ir suv quvuri (vodostok) - tashqi tashkil etilgan yomg'ir suv lotoklari va suv quvuri polimer qoplamlari ruhlangan metall quvurdan. Yomg'ir suv quvurlarini drenaj tizimining yer osti drenajiga chuqurlashtirish zarur.</p>
15	Muhandislik va texnologik asbob-uskunalarga, texnologik jihozlarga qo'yildigan talablar.	<p>-Ta'minot tarmoqlari uchun loyihibav yechimlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy ilg'or texnologiyalari va uskunalaridan foydalanimishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Loyihachi tomonidan shartnomalar tuzilgan sanadan ikki kun muddatda muhandislik tarmoqlari bo'yicha zarur o'lechov (patrebnost') hisob-kitoblarni buyurtmachiga taqdirm qilinsin.</p> <p><b><i>Ichki muhandislik tarmoqlarini to'lig ta'mirlash :</i></b></p> <p><b>Elektr tizimi :</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-energiya tejash chora-tadbirlari;</li> <li>-binoning elektr yoritish tizimini loyihalashtirishda QMQ 2.01.05-98 va QMQ 2.04.17-98, shuningdek elektr inshoatlarining amaldagi qoidalariga (PUE) muvofiq 3 binolarning chiqish, eshkilarini tepasiga "CHIQISH" yozuvni bo'lgan elektr yoritkichli tablolar o'rnatilsin.</li> </ul> <p>Yangidan telefon juftlari bilan ichki telefon tarmoqlari, "Internet" tarmoqlariga ulash Vayfay (Wi-Fi) tizimini o'rnatishni inobatga olib loyixalash.</p> <p>Shamollatish tizimida xonalarning maqsadiga qarab va mavjud standartlarga muvofiq majburiy jalyuzalni sozlagichli panjara va yong'in o'chirish klapanlarini o'rnatish;</p> <p>Tabiiy shamollatish tizimini derazalardagi shamollatish klapanlarini orqali ta'minlash.</p> <p>Binolarning chiqish, eshkilarini tepasiga "CHIQISH" yozuvni bo'lgan elektr yoritkichli tablolar o'rnatilsin.</p> <p><b>Isitish va shamollatish :</b></p> <p>Binoni isitish tizimini loyihalashtirishda yangi zamonaviy talablarga asoslangan tabiiy gaz va qattiq yoqilg'ida ishlaydigan isitish qozonlari, yoqilg'i saqlash omborxonasi bilan birga, p/p quvurlar, nazarda tutilib, QMQ 2.01.04.-97 talablari asoslanib, energiya tejamkor teplotexnik materiallardan foydalananib loyihalansin ; Nasos o'rnatilishi bilan bitta quvurli tizim. Quvur ichidagi suvningsovushini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik izolyatsiyasini ta'minlash. Quvurlar devor ostida (kanallarda) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak. Radiatorlar –bimetalik. Xonadagi havo haroratini hisobini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq belgilash.</p> <p>Ochiilish oynalari bo'lgan tabiiy shamolatish. Ta'minot va chiqindi ventilyatsiyasini o'rnatish.</p> <p>Loyihalashda QMQ 2.01.18-2000*ga energiya is'temol qilishning yangi standartlarini hisobga olgan holda QMQ 2.04.05-97 va binolarni loyihalash qo'llanmasining talablariga rioya qilinsin.</p> <p><b>Suv ta'minoti va kanalizasiya :</b></p> <p>Suv ta'minoti QMQ 2.04.01-98 va QMQ 2.04.02-97 talablari bo'yicha bajarilishi kerak.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1.Ichki suvuq suv ta'minoti p/p quvurlar nazarda tutilishi kerak. Ichimlik suvi ta'minotining magistrall quvurlarini shahtalarda yotqizish kerak. Sovuq suv iste'molehilariga quvur liniylari va chiqish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarda) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak. Kirish joyida suvuq suv iste'moli hisoblagichini inobatga olish kerak.</li> <li>2. Ichki issiqlik suv ta'minoti tizimi (markazlashgan yoki elektr suv isitish qozoni) p/p asosidagi quvurlardan tayyorlanishi kerak. Ichki ichimlik suv ta'minotining magistrall quvurlarini yotqizish shaxtalarda amalga oshirish kerak. Issiqlik suv iste'molehilariga quvur liniylari va chiqish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarda) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak. Quvur ichidagi suvningsovushini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik izolyatiysini ta'minlash.</li> <li>3.Ichki suv ta'minoti va ichimlik suv ta'minotini yong'inga qarshi suv ta'minoti bilan ta'minlash. Agar tashqi birlashtirilgan kommunal va ichimlik suvi ta'minotidagi bosim yong'inni o'chirish ehtiyojlari uchun etarli bo'lmasa, u holda yong'inga qarshi nasos stantsiyasini ta'minlash. Yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimi GOST 10704-91 bo'yicha po'lat quvurlardan yasalgan. Yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimining asosiy quvurlarini shaxtalarda yotqizish.</li> <li>4.Oqava suv tizimi QMQ 2.04.01-98 va QMQ 2.04.03-97ga muvofiq amalga oshirilishi kerak.</li> </ol> <p>Ichki oqava suv tarmoqlari yuqori quvvat va gigienik hususiyatlarga ega bo'lgan PVX quvurlardan tayyorlanishi kerak. Oqava suv quvurlarini shaxtalarga yotqizish. Oqava suv tarmoqlarini tashqi oqava suv tarmog'iga ulash. Tiqilib qolish mumkin bo'lgan joylarda oqava suv quvurlarini qayta ko'rib chiqish va tozalash imkoniyatini ta'minlash.</p> <p>Barcha Quvurlar yopiq holatda bo'lsin yopiq holatda himoyalangan holda bajarilsin.</p>

		<p>-San.uzel xonalarida xonaning chekka burchagida nishab bilan trap o'rnatishni inobatga olish, Genuy kosasini pol sathidan bir qadam balandroq o'rnatishni inobatga olish. Yuvinish moslamalarini o'rnatishda bir butunli pol sathidan chiquvchi umivalniklardan foydalananish.</p> <p><b>5.Tashqarida tashkillashtirilgan drenajni ko'zda tutish.</b> Drenaj quvurlarini binoning tashqi devorlari bo'ylab yotqizish. Yomg'ir suv quvurlari ranglarini tanlashda bino fasad qismi rangiga uyg'ulanlashtirilgan holda tanlash lozim. Sovuq davrda quvurlarda suvning muzlashini oldini olish maqsadida quvurlarni isitish tizimini ko'zda tutish lozim. Yomg'ir suv quvurlarini qalnligi kamida 0,5mm va diametri kamida 100mm bo'lgan ruhlangan tunukadan yasalgan quvurlardan tayyorlanishi kerak.</p> <p><b>Majmuaviy havfsizlik tizimi:</b> Amaldagi me'yor va talablarga muvofiq loyihada binoning yong'in habarlash va ogoxlantirish tizimi, videokuzatuv bilan jihozlanishi nazarda tutilishi kerak.</p> <p><b>Yong'in o'chirish tizimi</b>-Loyihalashtirishda amaldagi me'yorlar "Yong'indan himoya qilish tizimlari. Avtomatik yong'indan habarlash va yong'in o'chirish moslamalariga muvofiq SHNQ 2.04.09-07 "Bino va inshoatlar yong'in avtomatikasi" talablari asosida amalga oshirish. O't o'chirish moslamalarini SHNQ 2.01-04 talablari asosida bajarilib, gider o'rnatib loyihalansin ; <b>Kuchsiz tok tizimlari</b>—"Internet" tarmoqlariga ulash, yong'in havfsizlik va habarlash tizimi.</p>
16	Energiya samarodorligi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2011 yildagi 161-sonli qaroriga muvofiq ob'yeqtning energiya samarodorligini oshirish bo'yicha zamonaviy inovatsion yechimlarni taqdim etish. Lampalarni energiya tejaydigan lampalar, zamonaviy issiqlik izolyatsiya materiallari va ikkita kamerali oynali PVX derazalardan foydalananishni ta'minlash.
17	Shifoxona maydonini obodonlashtirish.	Hududda obodonlashtirish ishlarining quyidagi turlarini ta'minlang. <ul style="list-style-type: none"> <li>- Shifoxona hududini peripetri bo'yicha o'rashda :</li> <li>-Tashqi to'sin devorlar (beton panelli plitalar) o'rnatish;</li> <li>- Tashqi temir darvozalar o'rnatish;</li> <li>-shifoxona hududida axlat tashlash joyi tashkil etish ;</li> <li>-dam olish joylari skameykalar o'rnatib loyihalansin ;</li> <li>-beton qoplamlari transport yo'llari, shu jumladan yong'in havfsizlik texnikasi uchun;</li> <li>-Tashqi qo'shimcha binolar mufil pech qurish;</li> <li>-kirish yo'lagi bruschatka, piyodalar o'tish yo'llari</li> <li>-hududni tashqi yoritish tizimi svetadiod lampalar bilan loyihalansin.</li> </ul>
18	Kommunal va muhandislik tizimlariga qo'yiladigan talablar	Ichki muhandislik tarmoqlari va tizimlari amaldagi me'yoriy talablarga muvofiq bajarilishi kerak. Yong'in signalizasiyasi signallari videokuzatuv o't o'chirish punktni birinchi qavat foyesida joylash.
19	Loyiha yechimlarini kelishishga qo'yiladigan talablar	Loyihalash tashkiloti loyihalash hujjatlarini barcha manfaatdor tashkilotlar shu jumladan buyurtmachi bilan kelishish
20	Atrof muxitni muhofaza qilish	Atrof muxitga ta'sir bayonlari (ZVOS) loyihasi ishlab chiqilsin va Davlat ekologik ekspertiza xulosasi olinsin.
21	Harakati cheklangan shaxslar uchun yashash sharoitlarini ta'minlash bo'yicha talablar	SHNQ 2.07.02-07ni hisobga olgan holda, harakatlanish imkoniyti cheklangan shaxslar (nogironlar va boshqalar) aholi guruhlari uchun qulay kirishni ta'minlash choralarini ko'rish, nogironlar va harakatlanishi cheklangan shaxslarning ehtiyojarini hisobga olgan holda pandus va xojatxonani ko'zda tutub loyihalash.
22	Vazirliklar va idoralar bilan muvofiqlashtirish zarurligi to'g'risida ko'rsatma (Loyiha yechimlarini kelishishga qo'yiladigan talab)	Loyiha tashkiloti loyihalash hujjatlarini ob'yeqtning bosh reja loyihalarini viloyat arxitektura boshqarmasi, tuman SEOM, tuman FVB va tegishli texnik shart bergan tashkilotlar bilan kelishiladi, shu jumladan buyurtmachi va foydanuvchi bilan kelishish.
23	Loyihalash ishlarini bajarishga qo'yiladigan talablar	Loyiha hujjatlari bo'limlari, tarkibi va ularning mazmuni amaldagi me'yoriy-huquqiy bazaga muvofiq bo'lishi kerak ; <ul style="list-style-type: none"> <li>-smeta hujjatlarini tasdiqlangan standartlarga muvofiq rejalshtirilgan qurilish muddatiga to'g'ri keladigan narhlar bo'yicha amaldagi narhlash tartibiga muvofiq ishlab chiqish.</li> <li>-Ish hujjatlaridan I nusxada buyurtmachiga va ekspertizaga berish uchun tayyorlab taqdim qilish.</li> </ul> Loyiha tashkiloti dastlab buyurtmachiga keyin ekspertiza davomida dizayn yechimlarini himoya qilishni ta'minlaydi. <ul style="list-style-type: none"> <li>-Binolarni pardozlash, ichki xonalarni zamonaviy dizayn elementlaridan foydalangan holda bezash ishlari albomi topshiriladi.</li> </ul>
24	Loyiha-smeta hujjatlari talabi	Bir hil quvvat va hajmdagi ob'yektlar uchun ishlab chiqiladigan loyiha-smeta hujjatlari yakuni bo'yicha aniqланадиган qiymatlar o'rtasida keskin tofovutlar yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik, loyiha-smeta hujjatlarida qurilish va jihozlash hajmlarini to'liq inobatga olmag'an loyiha tashkilotlariga nisbatan qonunchilik doirasida tegishli choralar ko'riliши, loyiha-smeta hujjatlarining sifati va asoslanganligi hamda me'moriy va texnik yechimlarning maqbulligi yuzasidan loyiha tashkilotlarining javobgarligini kuchaytirish, loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishda ob'yeqtning cheklangan qiymati aniq belgilanishini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.
		Loyiha-smeta hujjatlarida yuqorida inobatga olingan hato-kamchiliklarga tofovutlarga, ob'ekt qiymatini sun'iy ravishda oshirishga, qo'shib yozishlarga yo'l qo'yilsa hato-kamechiliklar loyihachi tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan

		bartaraf qilinib to'g'irlanadi. qonunchilik doirasida tegishli choralar ko'rilib, javobgarlik loyiha tashkilot zimmasiga yuklanadi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrdagi 43-sonli Qarori talablariga to'liq rioya qilinishi alohida e'tibor talab qilinadi.
25	Loyiha-smeta hujjatlarini bajarishga qo'yiladigan talablar	<p>Loyiha hujjatlari bo'limlari, tarkibi va ularning mazmuni amaldagi me'yoriy-huquqiy bazaga muvofiq bo'lishi kerak ;</p> <p>-smeta hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasi qurilish Vazirligining 2021 yil II-chorak katogi bo'yicha tayyorlangan, komissiya tomonidan tasdiqlangan o'rtaча narhlarga asosan joryy narhlarda amalgal oshirilsin, quruvchi ishchilarning o'rtaча soatlik ish haqi – 16032,92so'm (12% ijtimoiy sug'urta ajratmalarini hisobga oлgan holda) dan olinsin, pudratchining harajatlari 15,51%, buyurtmachi harajatlari qo'shimcha ilova qilinadi, tavakkalchilik koeffitsienti –0.</p> <p>Materiall resurslariga transport va omborxona-tayyorlov harajatlarini O'zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 2011 yil 30 yanvardagi 352/11-05-sonli xatiga asosan olinadi.</p>
26	Muhandislik izlanishlari zarurligi.	1:500 masshtabdagi topografik xaritalar va muhandislik geologik izlanishlar loyiha tarkibida bajariladi.
27	Qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish (POS)	O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan meyoriy qoidalarga muvofiq ishlab chikilsin.
28	Buyurtmachiga taqdim etiladigan hujjatlar	<p>Loyihachi tashkilot tomonidan loyiha smeta hujjatlari SHNQ 1.03.01-2016 "Korxonalar, binolar va inshaotlarni kapital qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarini tarkibi, ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va tasdiqlash"ga muvofiq buyurtmachiga shartnomada belgilangan muddatdan kechiktirmasdan buyurtmachiga taqdim qilinishi shart.</p> <p>-Ishchi loyiha (barcha ilova hujjatlar bilan), 4 (to'rt) nusxada,</p> <p>-Lokal va resurs smetalar qog'ozda 1 (bir) nusxada, elektron versiyasi (disk) bilan.</p> <p>Shuningdek, loyiha tashkiloti litsenziyasi (asl nusxaning pdf shakli)</p> <p>1) nuqsonli dalolatnomalar (asl nusxaning pdf shakli)</p> <p>2) umumiyl tushuntirish xati, shu jumladandizayn uchun daslabki ma'lumotlar (asl nusxaning pdf shakli)</p> <p>3) asosiy reja gp, tx, fasad (asl nusxaning pdf shakli)</p> <p>4) arxitektura va qurilish yechimlari (as, ov, vk, eo, ops, vd) (asl nusxaning pdf shakli)</p> <p>5) qurilish maydonining muhandislik-geologik tadqiqotlari natijalari to'g'risidagi hulosalar (tegishli hollarda). (asl nusxaning pdf shakli);</p> <p>6) loyihalashning avvalgi bosqichda ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan materiallar va hujjatlar (asl nusxaning pdf shakli)</p> <p>7) ob'ekt joylashgan hududdagi qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan kengash xulosasi (asl nusxaning pdf shakli)</p> <p>8) davlat tabiatni muxofaza qilish qo'mitasining e'tirozlarsiz xulosasi (asl nusxaning pdf shakli)</p> <p>9) o'zbekiston nogironlar jamiyati bilan kelishuv xati (asl nusxaning pdf shakli)</p> <p>10) ilmiy-tadqiqot kengashi xulosasi (tegishli hollarda). (asl nusxaning pdf shakli);</p> <p>11) tarmoq xulosasi. (asl nusxaning pdf shakli);</p> <p>12) muhandislik tarmoqlarini nazorat qiluvchi va foydalanuvchi manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan materiallar (tegishli hollarda). (asl nusxaning pdf shakli);</p> <p>13) smeta (baholash) qism (exel va asl nusxaning pdf shakli)</p> <p>14) smeta (baholash) qism (exel va asl nusxaning pdf shakli)</p>

#### Buyurtmachi:

Xorazm viloyti hokimligining  
"YaBX" IK bosh muhandisi

B.Sapaev

#### Kelishildi:

Viloyat Sog'lijni saqlash boshqarmasi  
boshlig'i o'rinosari

J.Qurbanov

#### Taylorladi:

Xorazm viloyti hokimligining  
"YaBX" IK loyiha bo'limi 1-darajali mutaxassis

S.Qolandarov